KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 2 (532) 2025-YIL, 18-YANVAR

2024-yil 16-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi tomonidan bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Ushbu qarorlar sud tizimi, xususan, yer to‘g‘risidagi qonunchilik, fuqarolik ishlari, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyotida yuzaga kelgan muammolarni hal etishga qaratilgan. Qabul qilingan qarorlar O‘zbekiston Respublikasining sud tizimini yanada takomillashtirishga, huquqiy tartibni mustahkamlashga va sudlardagi amaliyotni yangilashga xizmat qilishi kutilmoqda.

SUD TIZIMINING TAKOMILLASHUVI

Davlat boji boshqa turdagi majburiy to‘lovlar qatori Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu bois, ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, sudlar davlat bojini undirish to‘g‘risidagi qonun talablariga qat'iy rioya etishlari talab qilinadi.

Oliy sud plenumining "Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risida"gi qarori sud xarajatlarini undirish masalasiga doir qonunchilikni sudlar tomonidan to‘g‘ri qo‘llanilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Shu kungacha amalda bo‘lgan "Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risida"gi plenumi qarori 15 yil avval qabul qilingan bo‘lib, bu davr ichida qonunchilikda bir qator o‘zgarishlar yuz berdi. Bu esa, mazkur plenum qarorini ham qaytadan ko‘rib chiqqan holda uning yangi tahririni qabul qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Yangi qaror amaliyotda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarning kelgusida oldini olish, amaliyotdagi ayrim noaniq holatlar yuzasidan tushuntirish berish, sudlar tomonidan qonun normalarini bir xil talqin qilinishi va yagona amaliyotni yaratishga qaratilgan.

Plenum qaroriga sudlar tomonidan davlat bojini undirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, sudlarda turlicha amaliyot yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan holatlarga batafsil tushuntirishlar berish haqidagi yangi bandlar kiritildi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha davlat boji quyidagilardan undiriladi:

1) sudlarga beriladigan da'vo arizalardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizalardan;

2) hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalardan;

3) hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizalardan;

4) chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi arizalardan;

5) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan da'vo arizalaridan;

6) apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibidagi shikoyatlaridan:

7) hujjatlarning dublikatlarini va ko‘chirma nusxalarini (shu jumladan, takroriy ravishda beriladigan sud hujjatlarining ko‘chirma nusxalarini) berganlik uchun.

Oliy sud plenumining "Iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risidagi qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi qarori ham sud xarajatlarini undirish masalasiga doir qonunchilikning sudlar tomonidan to‘g‘ri qo‘llanilishi va amaliyotni birxillashtirishni ta'minlashga qaratilgan.

U.SOLIYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Paxtaobod tuman sudi raisi.

«HARBIY VATANPARVARLIK - YUKSAK ISHONCH VA SADOQAT»

Tadbirda O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zolari, faxriy jurnalistlar, OAV vakillari, ijtimoiy tarmoq faollari hamda matbuot kotiblari ishtirok etdi.

Ishtirokchilarga dastlab bog‘ga joylashtirilgan harbiy texnikalar: turli rusumdagi tanklar, piyodalar jangovar mashinalari, zirhli transportyorlar hamda artilleriya va zenit qurilmalari haqida batafsil ma'lumot berildi. Eksponatlar orasida ko‘pchilikning diqqatini tortuvchi qiruvchi samolyoti hamda harbiy vertolyot ularni e'tiborini tortdi.

-Harbiy xizmatni o‘tayotgan chog‘imda harbiy texnikaga juda qiziqardim. Shuning uchun harbiy texnikalar haqida ko‘p o‘qigandim. Hozir mazkur bog‘da ana shularni ko‘rdim. Bor bilimlarimni hamkasblar va shogirdlarim bilan o‘rtoqlashdim, - dedi O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Zokirjon Yusupov.

"Qahramonlar alleyasi"da vatan ozodligi, tinchligi va himoyasi yo‘lida jon fido qilgan jasur o‘g‘lonlar sharafiga qurilgan xotira maydonida ularning yurt osoyishtaligi, xalq totuvligi yo‘lidagi fidoyiligi to‘g‘risida so‘z bordi.

"Vatanga qasamyod" monumenti oldida yurtimizda vatan tinchligi yo‘lida amalga oshirilgan ishlar haqida aytib o‘tildi.

Shundan so‘ng ishtirokchilar bog‘da joylashgan eksponatlar bilan tanishdilar va ajoyib tabiatdan bahra oldilar.



O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi tomonidan "14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni" munosabati Yangi Andijon assividagi "Vatanparvarlik bog‘ida "Harbiy vatanparvarlik - yuksak ishonch va sadoqat" tadbiri tashkil etildi.

M.MAMATQULOV,
"Adolat mezoni" muxbiri.

SUD AMALIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi 2024-yil 16-dekabr kuni bir qator muhim qarorlar, jumladan yer, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti bilan bog‘liq plenum qarorlarini qabul qilindi.

Konstitutsiyadan yerga doir alohida norma o‘rin olgan bo‘lib, 68-moddada yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekani e'tirof etilgan. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer to‘g‘risidagi qonunchilik O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 2-moddasida ko‘rsatilgan prinsiplarga asoslanadi.

Yer kodeksining 8-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar - qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo‘linadi;

2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar - ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar - muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar;

6) o‘rmon fondi yerlari - o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari - suv obyektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zaxira yerlar.

Ushbu yer fondlaridan belgilangan me'yoriy hujjatlar talablari asosida foydalanmaslik ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

So‘nggi yillarda yer bilan bog‘liq jinoyat ishlari ko‘payib borayotgani, sudlar tomonidan bu toifadagi ishlarni ko‘rishda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash, fuqaroviy da'vo masalasini hal qilish amaliyotining turlicha hal qilinayotgani, yagona amaliyotning shakllanmagani sababli bu toifadagi ishlarni ko‘rishda sudlarga qonunni amalda to‘g‘ri qo‘llash yuzasidan tushuntirish berish zarurati yuzaga keldi.

Oliy sud plenumining "Yer bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi. Unda yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, yer berish tartibini buzish, yer uchastkasini noqonuniy olib qo‘yish, sug‘oriladigan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga bo‘lgan huquqni sotish yoxud qonunga xilof ravishda boshqacha tarzda o‘zga shaxsga berish jinoyatlarining zaruriy belgilari, ularni kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos jihatlari va boshqa o‘xshash tarkibli jinoyatlardan farqi haqida tushuntirishlar berilgan.

Plenum qarori bu toifadagi ishlarni ko‘rish jarayonida odil sudlovga erishishga xizmat qilish bilan birga, sud amaliyotini birxillashtirish, qonunlarni aniq va to‘g‘ri qo‘llashga xizmat qiladi.

A.NAZIRBEKOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudi raisi.

"O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi Hukumat qarori (847-son, 2024-yil 18-dekabr.) qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 5 turdagi davlat xizmatlari proaktiv tarzda hamda 6 turdagi davlat xizmatlari kompozit tarzda ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmoqda.

DAVLAT XIZMATLARIDAN FOYDALANISH YANADA OSONLASHADI

Bunda quyidagi davlat xizmatlarini proaktiv tarzda ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmoqda:

elektr energiyasini hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish;

tabiiy gazni hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish;

ichimlik suvini hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish;

issiq suvni hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish;

xususiy bandlik agentliklarini Xususiy bandlik agentliklarining reyestriga kiritish.

Proaktiv davlat xizmati - jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarisiz vakolatli organlar tashabbusi bilan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari.

Shuningdek, quyidagi davlat xizmatlarini kompozit tarzda ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmoqda:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ushbu manzilga doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yish;

ko‘chmas mulk ijara yoki tekin foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish va ushbu manzilga vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yish;

davlatga tegishli bino yoki inshootni bir yildan kam bo‘lmagan muddatga ijaraga berish va ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

"E-auksion" elektron savdo platformasida ko‘chmas mulk obyektlarini sotish va ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

tibbiy faoliyat uchun litsenziya bilan birga rentgen uskunasidan foydalanish uchun ruxsatnoma olish;

xavfli yuklarni tashish uchun sig‘imlarning yaroqliligi to‘g‘risida xulosa bilan birga yadroviy va radioaktiv materiallar, radiatsiya manbalari, radioaktiv chiqindilar va qurilmalarni tashish shartlari va usullarining sanitariya qoidalariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa olish.

Kompozit davlat xizmati - jismoniy va yuridik shaxslarning bitta murojaati asosida vakolatli organlar tomonidan ko‘rsatiladigan ikki va undan ortiq davlat xizmatlari majmuasi.

Bundan tashqari, quyidagi 2 turdagi ruxsat etish xususiyatiga ega davlat xizmatlarini ko‘rsatish pasportlari tasdiqlandi:

maxsus kiritiladigan biologik aktiv moddalar, yangi kimyoviy moddalar, oziq-ovqat qo‘shimchalari, biologik vositalar va materiallar polimer va plastik massalar, parfyumeriya-kosmetika mahsulotini (BAD) olib kirish hamda ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma;

madaniy boyliklarni O‘zbekistondan olib chiqish yoki vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat olish.

Quyidagi 3 turdagi faoliyat turlarini xabardor etishni nazarda tutuvchi davlat xizmatlarini ko‘rsatish pasportlari tasdiqlandi:


bojxona brokeri faoliyati;

xalqaro kuryerlik jo‘natmalarini yetkazib berish bo‘yicha faoliyat;

nodavlat arxivlarni tashkil etish bo‘yicha faoliyat.

Shu munosabat bilan, belgilangan nodavlat arxivlar faoliyatini tashkil etishga doir ortiqcha tartiblar bekor qilindi.

Saydullo OTAJONOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i.



NOTARIUS

QACHON NOTARIAL HARAKATNI AMALGA OSHIRISHNI RAD ETADI?

Notarial harakatlar notarial idoralarning binolarida amalga oshiriladi.

Fuqaro kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra notarial idoraga bora olmaydigan ayrim hollarda notarial harakatlar mazkur fuqaro turgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Qonunchilikda notarial harakatlar notarial idoralarning binolaridan tashqarida amalga oshiriladigan boshqa hollar ham nazarda tutilishi mumkin.

Notarial harakatlar haq to‘languanidan so‘ng zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi.

Notarial harakatni amalga oshirishni rad etish asoslari

Notarius quyidagi hollarda notarial harakatni amalga oshirishni rad etadi, agar:

bunday harakatni amalga oshirish qonunga zid bo‘lsa;

bu harakat boshqa notarius tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lsa;

muomalaga layoqatsiz fuqaro yoxud zarur vakolatlari bo‘lmagan vakil notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan bo‘lsa;

yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan bitim uning ustavida yoki nizomida ko‘rsatilgan maqsadlarga zid bo‘lsa;

bitim qonun talablariga muvofiq bo‘lmasa;

notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmasa.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida notarius murojaat qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmasdan qaror chiqaradi.

Notarius notarial harakatni amalga oshirish to‘g‘risidagi murojaati rad etilgan shaxsning iltimosiga binoan rad etish sababini yozma ravishda bayon etishi va rad etish ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib berishi lozim.

Amalga oshirilgan notarial harakatni, notarial harakatni kechiktirish yoki notarial harakatni amalga oshirishni rad etish to‘g‘risidagi qarorni noto‘g‘ri deb hisoblagan manfaatdor shaxs bu xususda notarial idora turgan joydagi sudga shikoyat qilishga haqlidir.

Sirojiddin IMINOV,
Qo‘rg‘ontepa tumanida xususi amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

NOTARIAL TASDIQLANGAN HUJJATLARGA TENGLASHTIRILADIGAN VASIYATNOMALAR, ISHONCHNOMALAR

Qonunchilikka ko‘ra, vasiyat qiluvchi yoki ishonch bildiruvchi tomonidan yozilgan yoki uning so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olingan vasiyatnoma va ishonchnoma notarial tasdiqlangan vasiyatnoma va ishonchnoma hisoblanadi.

Yana shunday holatlar bo‘ladiki vaziyat nuqtai nazaridan boshqalar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar ham notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi.

Ular quyidagilar:

kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa stastionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo‘yicha o‘rinbosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek gospitallarning boshliqlari, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarining direktorlari va bosh shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

qidiruv ekspedistiyalarida yoki shunga o‘xshash boshqa ekspedistiyalarda bo‘lgan fuqarolarning shu ekspedistiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar joylashgan, notariuslar bo‘lmagan punktlarda esa, shu qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo‘lmagan shaxslarning, ular oila a'zolarining hamda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno.

Vasiyatnomalar, ishonchnomalar va arizalarni ushbu moddada aytib o‘tilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilab qo‘yadigan tartibda amalga oshiriladi.

Oyatillo MADAMINOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

MOL-MULKNI BOSHQA SHAXSGA O‘TKAZISHNI TAQIQLAB QO‘YISH VA TAQIQNI BEKOR QILISH



Mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yish va taqiqni bekor qilish bilan bog‘liq bo‘lgan notarial harakatlar "Notariat to‘g‘risidagi" qonuniga ko‘ra, notariuslar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir shaxs o‘z egaligidagi mol-mulkni erkin ravishda egallash undan foydalanish va tasarruf etish huquqiga egadir.

Lekin ba'zida, qonunda ko‘rsatilgan hollarda mulkning tasarrufiga nisbatan taqiq solib qo‘yiladi. Mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yish va taqiqni bekor qilish qonun hujjatlarida belgilangan shartlarda va tartibda amalga oshiriladi.

Birlamchi bozordagi ko‘chmas mulk va transport vositalariga nisbatan ipoteka shartnomalarini rasmiylashtirgan bank va boshqa kredit tashkilotlari mol-mulkka taqiq qo‘yish hamda taqiqni yechishni axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalangan holda, Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Elektron ma'lumotlar bankiga mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab yoki xatlab qo‘yish, uni bekor qilish to‘g‘risidagi ma'lumotlar sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, davlat ijrochisi, notarius, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi idoraviy notarial arxivlar mudirlari, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari), Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining ro‘yxatdan o‘tkazuvchilari, bank va boshqa kredit tashkilotlarining rahbari yoki tegishli vakolat berilgan xodimlari tomonidan kiritiladi.

Notarius qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda, shuningdek, taraflarning kelishuviga asosan mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yadi va taqiqni bekor qiladi. Bunda notariusning mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yishi va taqiqni bekor qilishi elektron ma'lumotlar banki orqali amalga oshiriladi.

Notarius notarial arxiv saqlovida bo‘lgan hujjatlar bilan bog‘liq taqiqni (xatlovni) bekor qilishi mumkin. Bank va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kredit yoki qarz qaytarilishini ta'minlash maqsadida notarial tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan taqdirda mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishga taqiq:

2019-yil 1-yanvarga qadar qo‘yilgan bo‘lsa, mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishga qo‘yilgan taqiq bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlar istalgan notarius yoki tegishli notarial arxiv mudiri tomonidan;

2019-yil 1-yanvar va undan keyin qo‘yilgan bo‘lsa, mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishga qo‘yilgan taqiq bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlar tegishli bank yoki kredit tashkiloti tomonidan elektron ma'lumotlar bankiga kiritiladi.

Bank va boshqa kredit tashkilotlarining notarial tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi bo‘yicha majburiyat to‘liq bajarilganligi hamda mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishga qo‘yilgan taqiq bekor qilinishi lozimligi haqidagi xabarnomasi elektron ma'lumotlar bankiga elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Elektron ma'lumotlar banki davlat tilida shakllantiriladi va yuritiladi. Notarius elektron ma'lumotlar banki orqali mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yishi va taqiqni bekor qilishi mumkin.

Mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlab yoki xatlab qo‘yish, shuningdek, uni bekor qilishda to‘lov undirilmaydi.

Murojaatga asosan elektron ma'lumotlar bankida mavjud ma'lumotlar notarius va (yoki) notarial arxiv mudiri tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki YaIDXP (my.gov.uz) orqali yoxud E-notarius.uz axborot portali orqali taqdim etiladi.

Farxad AKBAROV,
Jalaquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

UMUMIY BIRGALIKDAGI MULK BO‘LGAN MOL-MULKNI MEROS QILIB OLISH TARTIBI QANDAY?

Huquqiy institutlar ichida eng qadimgilaridan biri hisoblangan vorislik - fuqarolik huquqining muhim instituti sifatida fuqaro vafot etgan taqdirda, uning mol-mulki va mulkiy huquq majburiyatlarining merosxo‘rlarga o‘tishi asoslari, tartibi va shartlarini belgilaydi.

Meros qoldiruvchi hayotligida ega bo‘lgan mulk, mulkiy huquq va majburiyatlarining merosxo‘rlarga o‘tishi bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar vorislik huquqi normalari bilan tartibga solinadi va uning predmeti hisoblanadi. Merosxo‘rlarga o‘tishi mumkin bo‘lgan mulk va mulkiy huquq majburiyatlarining jamisi merosni tashkil qiladi.

Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisining o‘limi umumiy mol-mulkka bo‘lgan huquqdagi uning ulushini aniqlash va Fuqarolik Kodeksning tegishli moddasida belgilangan tartibda umumiy mol-mulkni taqsimlash yoxud undan vafot etgan ishtirokchining ulushini ajratish uchun asos bo‘ladi. Bu holda meros vafot etgan ishtirokchining ulushiga to‘g‘ri keladigan umumiy mol-mulkka nisbatan ochiladi, mol-mulkni natura holida taqsimlashning imkoni bo‘lmaganida esa - bunday ulushning qiymatiga nisbatan ochiladi.

Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisi umumiy mol-mulkka bo‘lgan huquqdagi o‘z ulushini vasiyat qilishga haqlidir, bu ulush uning vafotidan keyin ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisining mol-mulki meros qilib qoldirilgan hollarda, merosxo‘r umumiy birgalikdagi mol-mulkning vafot etgan ishtirokchisiga tegishli bo‘lgan ulushini meros qilib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Umumiy birgalikdagi mulk bo‘lgan mol-mulkni taqsimlashning imkoni bo‘lmaganida, merosxo‘r bunday mol-mulkning mutanosib qiymatini olish huquqiga ega bo‘ladi.

Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisi mol-mulkining meros qilib qoldiriladigan ulushi uning o‘limidan so‘ng belgilanadi.

Birgalikdagi mulk bo‘lgan mol-mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish Fuqarolik kodeksining tegishli moddasida tartibga solingan. Unga ko‘ra, umumiy mol-mulkni birgalikdagi mulk ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash, shuningdek ulardan birining ulushini ajratish dastlab ishtirokchilardan har birining umumiy mulk huquqidagi ulushi aniqlanganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy mulk taqsimlanganida va undan ulush ajratilganida, agar qonunda yoki ishtirokchilarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ularning ulushlari teng hisoblanadi.

Umumiy mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish asoslari hamda tartibi Fuqarolik Kodeksi tegishli moddasi bilan, birgalikdagi mulkning ayrim turlari uchun esa - boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Shunday qilib, umumiy mol-mulkni birgalikdagi mulk ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash, shuningdek ulardan birining ulushini ajratish, faqat dastlab birgalikdagi mulk ulushliga mol-mulkka aylantirilib, ishtirokchilardan har birining ulushi aniqlanganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Dilrabo ELMURODOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

KO‘CHMAS MULKNI O‘ZGAGA O‘TKAZISH SHARTNOMASINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Ma'lumki 2017 yildan buyon fuqarolar ko‘chmas mulkni oldi-sotdi, ayirboshlash va hadya qilish bitimlarini rasmiylashtirish uchun turli xil ma'lumotnomalarni yig‘ish zaruratidan xalos bo‘ladilar.

"Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi yuzaga keldi. Tizim ko‘chmas mulk va avtotransport vositalarini o‘zgaga berishni taqiqlash, xatlash bo‘yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va saqlaydi.

Notarius bino va inshoot haqidagi ma'lumotni kuryerlik xizmati orqali yoki idoralararo elektron tizimlar orqali real vaqt rejimida mustaqil oladi.

Notariuslar bino va inshoot haqidagi ma'lumotni olish uchun turar joy joylashgan hududdagi yer tuzish va kadastr organiga kuryerlik xizmati orqali yozma yoki idoralararo elektron tizim orqali elektron shaklda so‘rovnoma bilan murojaat qiladi.

So‘rovnomada quyidagilar ko‘rsatilishi lozim: so‘rov yo‘llayotgan notarial idoraning nomi va manzili; so‘rovnoma yo‘llangan sana va qayd raqami; so‘rov yo‘llanayotgan yer tuzish va kadastr organi nomi; bino va inshoot kadastr yig‘ma jildi ma'lumotlari; so‘rovnoma yo‘llangan notarial idora notariusining ismi, familiyasi va otasining ismi; notariusining imzosi va muhri.

Elektron tarzda rasmiylashtirilganda idoralararo elektron tizim orqali real vaqt rejimida jo‘natiladi.

So‘rovnomada ma'lumotlar to‘liq bo‘lmagan taqdirda yer tuzish va kadastr organi ma'lumotnomani berishni rad etadi.

Boshqa asoslarga ko‘ra bino va inshoot haqida ma'lumot berishni rad etish qat'iyan taqiqlanadi.

Notariusning so‘rovnomasiga yer tuzish va kadastr organlari qonunga muvofiq shaklda, agar so‘rovnoma:

kuryerlik xizmati orqali yuborilsa - bir soat ichida yozma yoki elektron shaklda;

idoralararo elektron tizim orqali yuborilganda - zudlik bilan real vaqt rejimida elektron shaklda javob berishi shart.

Bino va inshoot haqida ma'lumotlar yer tuzish va kadastr organlari tomonidan bepul beriladi.

Notarius so‘rovnomasiga asosan beriladigan ma'lumotda quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

yer tuzish va kadastr organining nomi va manzili (agar javob yozma shaklda bo‘lsa); ma'lumotnoma tuzilgan sana va qayd raqami; ma'lumotnoma yuborilayotgan notarial idora; bino va inshoot mulkdori haqidagi ma'lumotlar; bino va inshoot kadastr yig‘ma jildi ma'lumotlari; ko‘chmas mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishga taqiq va xatlov mavjud yoki mavjud emasligi haqida ma'lumot; yer tuzish va kadastr organi xodimining lavozimi va ismi, familiyasi va otasining ismi; imzo va muhr (agar javob yozma shaklda bo‘lsa).

Xusanboy KAXOROV,
Jalaquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

ER-XOTINNI UMUMIY MOL-MULKIDAGI ULUSHGA BO‘LGAN MULK HUQUQI TO‘G‘RISIDA GUVOHNOMA BERISH

Er-xotinning umumiy mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma va er-xotinni mulkini bo‘lish haqidagi shartnoma Oila kodeksining 23-moddasida er va xotinning umumiy mulki to‘g‘risida tushuncha berilgan.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Er va xotindan biri uy-ro‘zg‘or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo‘lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo‘ladi. Er-xotindan biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) yozma arizasiga ko‘ra meros ochilgan joydagi notarius tomonidan beriladi . Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinga (erga) nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkning yarmi uchun berilishi mumkin.

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma er-xotinning mavjud umumiy mulki hisoblangan mulkigagina beriladi.

Buning uchun quyidagi hujjatlar taqdim etishi kerak. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat, nikoh haqidagi guvohnomasi. mulkka bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat va boshqa hujjatlar.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish er va xotindan birining talabiga ko‘ra, ular nikohda bo‘lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek, kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkni bo‘lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin. Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida bo‘lib olinishi mumkin.

Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi o‘zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanadi. Nizo tug‘ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish, shuningdek, er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulkni ulardan har birining shaxsiy mulki deb topishi mumkin. Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar bo‘linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensastiyasiz beriladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o‘rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘yilgan omonatlar o‘sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish paytida e'tiborga olinmaydi. Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo‘lingan taqdirda, er va xotin mol-mulkining bo‘linmay qolgan qismi, shuningdek, er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo‘llaniladi. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o‘rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

Otabek SHOKIROV,
Baliqchi tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

HUJJATLARNING BIR TILDAN BOSHQA TILGA TO‘G‘RI TARJIMA QILINGANLIGINI SHAHODATLASH



Notarius, basharti u tegishli tillarni bilsa, bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi.

Agar notarius tegishli tillarni bilmasa, tarjima tarjimon tomonidan qilinishi mumkin, notarius uning imzosi haqiqiyligini shahodatlaydi.

Tarjima notariusga ma'lum bo‘lgan va tegishli tilni bilgan tarjimon tomonidan qilinishi kerak. Tarjimonning tegishli tilni bilishi uning diplomi yoki maxsus ma'lumotga ega ekanligi haqidagi sertifikat yoxud tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Mazkur notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaro quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolarining shaxsi - ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditastiya kartochkasi;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun - O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Hujjatni asl nusxasi.

Notarial harakatni (bitimni tasdiqlash, nusxalarning va shu kabilarning to‘g‘riligini shahodatlash) amalga oshirish paytida notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan shaxslarning (ulardan birining) iltimosiga ko‘ra ayni vaqtda boshqa tilga tarjimasi ham qilinadigan bo‘lsa, tarjima asl nusxa bilan bir varaqda, ya'ni ikkala matn tik chiziq bilan bo‘lingan varaqda yonma-yon joylashishi, asl matn chap tomonda, tarjima matni esa o‘ng tomonda bo‘lishi kerak. Bunda hujjatning butun matni va muhr ham tarjima qilinadi.

Agar tarjima tarjimon tomonidan qilinsa, uning imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi hujjatning tarjima matni tagiga qo‘yiladi. Hujjatni imzolovchi shaxslar hujjatning asl matni va tarjima qilingan matni tagiga o‘zlarining familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilgan holda imzo qo‘yadilar. Bunda hujjatning tarjima matnidagi ularning imzolari tarjimon imzosidan keyin qo‘yiladi. Notariusning tasdiqlovchi yozuvi hujjatning asl matni va tarjima matni tagiga qayd etiladi.

Azizbek USMONOV,
Marhamat tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

TURSHAKNING FOYDASI



Turshaklar vitaminga boy tarkibi bilan quritilgan mevalar orasida mashhurdir. Qizig‘i shundaki, quritilgan o‘rik yangi mevalardan ko‘ra sog‘lom va to‘yimli hisoblanadi, masalan, ular uch barobar ko‘p kletchatkaga ega. Komponentlarning konstentrastiyasi mahsulotni quritish jarayonida ortadi.

Quritilgan o‘rik tarkibida kaliy, kalstiy, temir, natriy, fosfor, magniy va turli guruh vitaminlari mavjud hamda immunitetni mustahkamlaydi, energiyani oshiradi. Shuning uchun dietologlar mashg‘ulotdan bir necha soat oldin quritilgan mevalarni iste'mol qilishni maslahat beradi.

Ko‘rish muammolarining oldini oladi

Quritilgan o‘rik A va E vitaminlarining tabiiy manbayi hisoblanadi. Parchalanish jarayonida beta-karotin faol moddaga aylanadi, u A va E vitaminlari bilan birgalikda ko‘z kasalliklarining oldini oladi. Yana bir pigment - karotenoid ko‘rish uchun muhim. Bu o‘simlik birikmasi ko‘zning to‘r pardasi va linzalarini himoya qiladi va hatto keksa odamlarda ham ko‘rish qobiliyatini yaxshilaydi.

Kamqonlikni bartaraf etadi

Ayniqsa, quritilgan mevalarni homilador ayollarning rastioniga kiritish tavsiya etiladi. Agar kuniga taxminan 5 dona quritilgan o‘rikni iste'mol qilish qoidaga aylansa, unda tanada doimo yetishmayotgan vitaminlar o‘rni to‘ladi. Bundan tashqari, homilador ayollar anemiya rivojlanish xavfiga duch keladi. Ko‘pincha kamqonlik temirning yetishmasligi tufayli yuzaga keladi, quritilgan o‘rik esa uning zaxiralarini to‘ldiradi.

Yurak kasalliklaridan asraydi

Quritilgan o‘rik boshqa mevalarga qaraganda ko‘proq kaliyni o‘z ichiga oladi, shuning uchun u gipertoniya, yurak xuruji yoki insult bilan og‘rigan odamlar uchun ayniqsa foydalidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mahsulotdan doimiy iste'mol qilish yuqori qon bosimini pasaytirishi va insult xavfini kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, kaliy, elektrolit - tanadagi asab tugunlari va mushaklarning qisqarishini tartibga soluvchi ionli eritma bilan natriy o‘zaro ta'sirlashganda, u tanani kerakli miqdordagi suyuqlik bilan ta'minlaydi. Tanada suyuqlik qanchalik yaxshi bo‘lsa, toksinlar tezroq chiqariladi.

Suyaklarni mustahkamlaydi

Quritilgan mevalar keksalar uchun ham foydalidir, yoshi o‘tishi bilan suyakning mineral zichligi pasayadi, bu esa turli kasalliklarga olib keladi. Agar doimiy ravishda turshak iste'mol qilinsa, suyaklar mo‘rtlashishi kamayadi.

Nafas yo‘llarini tozalaydi

Magniy nafas olish yo‘llariga foydali ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu element yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida qo‘llanadi, hujayralar yallig‘lanishining oldini oladi va nafas olishni osonlashtiradi.

Teri holatini yaxshilaydi

Antioksidant sifatida quritilgan mevalar erkin radikallarning zararlanish xavfini kamaytirish orqali terining tabiiy tuzilishini saqlab qolishga yordam beradi. Erkin radikallar sog‘lom hujayralar bilan bog‘lanib, hujayra devorlarini oksidlaydi va ularga zarar yetkazadi. Turshak iste'moli bilan ajinlar paydo bo‘lishini minimallashtirish va qarish jarayonini sekinlashtirish, shuningdek terining elastikligini oshirish mumkin.

To‘g‘ri quritilgan o‘rikni qanday tanlash kerak?

Quritilgan mevalarni sotib olayotganda, yorqin rangdagisini tanlash kerak emas. Ehtimol, u kimyoviy qo‘shimchalar, ta'm va rang beruvchi vosita tufayli yaxshi ko‘rinayotgandir. Shuningdek, tarkibi va ishlab chiqarish vaqtiga e'tibor berish lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, quritilgan o‘riklar boshqa mahsulotlarning o‘rnini bosuvchi asosiy tarkibiy qism emas, balki rastion uchun ajoyib qo‘shimcha hisoblanadi. Qolaversa, vazn kamaytirishni istaganlar turshaklarni iste'mol qilmagani yaxshiroq, chunki ular yuqori kaloriyaga ega. Kunlik tavsiya etiladigan miqdor 7-8 dona quritilgan o‘rik bo‘lib, bu tanaga zarar etkazmaydi va barcha etishmayotgan zahiralarni to‘ldiradi, eng muhimi, hazm qilish jarayoni va jigarni tozalashga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

D.ABDUMAJIDOVA TAYYORLADI.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Обод кўчаси, 159-уйда яшаб, 2018 йил 11 февраль куни вафот этган марҳум **ХУДАЙБЕРДИЕВ ГАНИЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шох кўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2012 йил 14 апрель куни вафот этган марҳум **АКБАРОВ АБДУМАЛИК**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Милий кўчаси, 27-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Т.У.Арзикулов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Ал-Бухорий МФЙ, Дукчи Эшон кўчаси, 36-уйда яшаб, 2020 йил 23 октябрь куни вафот этган маҳрум **МАМАДАЛИЕВ АБДУМУТАЛИБ ЎРИНБОЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шох кўчаси, 10/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.И.-Мамадалиев нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Шерматов кўчаси, 11-уйда яшаб, 2023 йил 20 январь куни вафот этган марҳум **IBRAXIMOV MEXMONXO‘JA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.Максудов нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2023 йил 16 февраль куни вафот этган марҳума **УСМАНОВА ДИЛРАБОХОН ЗУЛУНОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 32-уй, 63-хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.А.Камалов нотариал идорасига,

Андижон тумани, Огиллик МФЙдаги уйда яшаб, 2024 йил 10 май куни вафот этган марҳум **ТУХТАСИНОВ МАРДОНБЕК МАШҲУРБЕК ЎҒЛИ**нинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О. Расулов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Навоий МФЙ, Келажак овози кўчаси, 4/20-уйда яшаб, 2023 йил 17 февраль куни вафот этган марҳума **ERGASHEVA ZAMIRAXON ABDULXAKIMOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Зулунов нотариал идорасига,

Қўрғонтпеа тумани, Норбўта МФЙ, Шавкатли диёр кўчасида яшаб, 2024 йил 15 апрель куни вафот этган марҳума **TURDIYEVA OKIBATXON MUMINOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа шаҳри, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Б.Мамадалиев нотариал идорасига,

Жалақудуқ тумани, Бозорбоши МФЙ, Тизим кўчаси, 63-уйда яшаб, 2023 йил 29 июль куни вафот этган марҳума **ABDUVALIYEVA DILOROMXON ABDUMUXTAROVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Туялас кўчаси, 71-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.Э.Кахоров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1996 йил 17 январь куни вафот этган марҳум **ТОШТЕМИРОВ ХАЛИЛЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 12 февраль куни вафот этган марҳум **ASKAROV ISMAIL MADAMINOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2009 йил 6 декабрь куни вафот этган марҳум **АХМЕДОВ АБДУРАХМОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 24 декабрь куни вафот этган марҳум **TAPUVALDIYEV MUSA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1994 йил 28 июль куни вафот этган марҳум **КУРБАНОВ КАМАЛ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1990 йил 14 апрель куни вафот этган марҳум **ЮЛДАШЕВ ҒОФУРЖОН САДУЛЛАЕВИЧ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2019 йил 27 октябрь куни вафот этган марҳум **ABDULLAYEV KASIMJON XAYDAROVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Даминбойчек МФЙ, Зилол кўчаси, 7-уйда яшаб, 2017 йил 4 май куни вафот этган марҳум **НАЖМИДИНОВ ЖАЛОЛИДИН КОМОЛОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Турон МФЙ, Ал-Бухорий кўчасидаги уйда яшаб, 2011 йил 17 декабрь куни вафот этган марҳума **МИРЗАЕВА УЛМАСХОН,**

Марҳамат тумани, Наврўз МФЙ, Фарзона кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 11 декабрь куни вафот этган марҳум **ДЖУРАЕВ ТАИРЖОН НАБИЕВИЧ,**

Марҳамат тумани, Ровот МФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2005 йил 9 февраль куни вафот этган марҳума **МАНСУРОВА ЖАННАТХОН,**

Марҳамат тумани, Кўтарма ҚФЙ, Бешмирза МФЙдаги уйда яшаб, 2023 йил 20 май куни вафот этган марҳума **БАКИРОВА ХАЛИМАХОН ХХХ,**

Марҳамат тумани, Юқори Ровот МФЙ, Чашма кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 6 октябрь куни вафот этган марҳума **ОТАЖОНОВА ХОЛИСХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2001 йил 20 май куни вафот этган марҳум **ҚОСИМОВ КОМИЛЖОН,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2023 йил 28 октябрь куни вафот этган марҳум **ХОЛИКОВ ДИЛМУРОД МУХТАРОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қозиқўрғон МФЙда яшаб, 2023 йил 30 августда вафот этган марҳума **MAQSUDOVA NAFISA MUTALIBOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қайрағочгузар МФЙда яшаб, 2022 йил 14 сентябрда вафот этган марҳум **JO’RABOYEV SULTONBOY**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиет билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo’limida terilda va sahifalandi.
«Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 17.01.2025 yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 17.01.2025 yil, soat 14.00
Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №0000107. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li